

**VYETNAM TILIDA ARXAIK HISOB SO‘ZLAR VA ULARNING BUGUNGI
KUNDAGI EVOLYUTSION KO‘RINISHLARI**

Qodirova Dilbarxon Mirzaxparovna

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Janubiy Osiyo tillari va adabiyoti oliy maktabi katta o‘qituvchisi

qodirova.dilbarxon@yandex.ru

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.21218480>

Annotatsiya. Mazkur maqolada vyetnam tilining hisob so‘zlar (từ loại chỉ đơn vị) tizimi, xususan, arxaik birliklarning diaxronik taraqqiyoti va ularning zamonaviy til strukturasiidagi o‘rni tadqiq etilgan. Tadqiqotda arxaik hisob so‘zlarning (đầu, ngọn, đấng, bậc, nó) tildan chiqib ketish sabablari, semantik torayishi va universal hisob so‘zlar (“cái”, “con”) tomonidan assimilyatsiya qilinishi tahlil qilingan. Ishlab chiqilgan “Hisob so‘zning konvergentsiya qonuniyati” asosida til tizimidagi tejamkorlik tamoyili va maxsus birliklarning universal paradigmaga o‘tish mexanizmi yoritilgan. Tadqiqot jarayonida diaxronik, qiyosiy-tipologik va kognitiv tahlil metodlaridan foydalanilgan. Olingan natijalar vyetnam tili hisob so‘zlarini nafaqat miqdoriy ko‘rsatkich, balki borliqni lisoniy kategoriyalashning iyerarxik mikrotizimi sifatida baholashga asos bo‘ladi.

Kalit so‘zlar: vyetnam tili, hisob so‘zlar, arxaik birliklar, grammatikalizatsiya, konvergentsiya qonuniyati, kognitiv tilshunoslik, diaxronik tahlil, klassifikatorlar.

Аннотация. В статье исследуется система счетных слов (từ loại chỉ đơn vị) вьетнамского языка, в частности диахроническое развитие архаичных единиц и их место в структуре современного языка. Анализируются причины выхода из употребления архаичных счетных слов (đầu, ngọn, đấng, bậc, nó), их семантическое сужение и ассимиляция универсальными счетными словами («cái», «con»). На основе разработанного «закона конвергенции счетных слов» раскрывается принцип экономии языковых средств и механизм перехода специализированных единиц в универсальную парадигму. В работе использованы диахронический, сравнительно-типологический и когнитивный методы анализа. Полученные результаты позволяют рассматривать вьетнамские счетные слова не просто как количественные показатели, а как иерархическую микросистему лингвистической категоризации бытия.

Ключевые слова: вьетнамский язык, счетные слова, архаичные единицы, грамматикализация, закон конвергенции, когнитивная лингвистика, диахронический анализ, классификаторы.

Abstract. This article examines the system of measure words (classifiers/từ loại chỉ đơn vị) in the Vietnamese language, specifically focusing on the diachronic development of archaic units and their role in the modern language structure. The study analyzes the reasons for the obsolescence of archaic measure words (e.g., đầu, ngọn, đấng, bậc, nó), their semantic narrowing, and their assimilation by universal measure words (“cái”, “con”). Based on the developed “Law of Convergence of Measure Words”, the article elucidates the principle of linguistic economy and the mechanism by which specialized units shift into universal paradigms. The research employs diachronic, comparative-typological, and cognitive analysis methods. The results suggest that Vietnamese measure words should be interpreted not merely as quantitative indicators but as a hierarchical micro-system for the linguistic categorization of reality.

Keywords: Vietnamese language, measure words (classifiers), archaic units, grammaticalization, law of convergence, cognitive linguistics, diachronic analysis, classifiers.

Kirish. Dunyodagi amorf-izolyatsiyalovchi tillar guruhining etaloni hisoblanuvchi vyetnam tilida (Kinh) sintaktik munosabatlarni ifodalash, gap bo‘laklarini o‘zaro bog‘lash va substantiv leksikani kategorial guruhlash bevosita yordamchi leksik-grammatik vositalar tizimiga tayanadi. Mazkur tizimning eng murakkab xalqasi – hisob so‘zlari (*từ loại chỉ đơn vị*) hisoblanadi.

Vyetnam tili hisob so‘zlar tizimining tarixiy-etimologik va diaxronik tahlili tilning proto-Mon-Khmer davridan boshlab, Xitoy tili (*Chữ Hán*) va qadimgi vyetnam yozuvi (*Chữ Nôm*) ta’sirida o‘tgan o‘ta o‘ziga xos evolyutsion yo‘lini ko‘rsatadi. Arxaik (tarixiy-arxeologik) hisob so‘z va ularning zamonaviy tildagi qoldiqlari lisoniy arxeologiya hamda kognitiv tilshunoslik nuqtayi nazaridan bugungi kunda jahon chet tillari va qiyosiy tilshunoslik yo‘nalishida eng dolzarb va chuqur tizimlashtirilishi zarur bo‘lgan mavzulardan biri bo‘lib qolmoqda.

Asosiy qism

1. Arxaik hisob so‘zlarning lingvistik tabiati va modifikatsiyasi

Arxaik hisob so‘zlari deganda, qadimgi va o‘rta asrlar vyetnam tili yozma yodgorliklarida faol qo‘llanilgan, biroq til tizimining ichki qonuniyatlari va sotsiolingvistik omillar natijasida vaqt o‘tishi bilan quyidagi lingvistik jarayonlarga uchragan maxsus kategorial birliklar tushuniladi:

- Butkul iste’moldan chiqib ketish (arxaizatsiya): Muayyan ekstralingvistik obyektlarning yo‘qolishi yoki tildagi kuchli leksik dubletlar tomonidan siqib chiqarilishi.

- Semantik torayish (ixtisoslashuv): Faqat diniy, marosimiy, mifologik yoki klassik adabiyot diskursi doirasida funksional qoldiq sifatida saqlanishi.

- Zamonaviy universal hisob so‘z (*cái, con*) tomonidan assimilyatsiya qilinishi: Yuqori darajada grammatikalashgan ushbu ikki o‘zak hisob so‘zning periferiyadagi boshqa mikrokategoriya ko‘rsatkichlarini o‘ziga yutib yuborishi.

Qadimgi va transformatsiyaga uchragan hisob so‘zlar tahlili:

1. Đầu (頭 - Bosh): Qadimgi epografik va klassik matnlarda, ayniqsa xitoy tili grammatik qoliplarining kuchli ta’siri davrida chorva mollari, ba’zi yirik jonsiz mexanik buyumlar va hatto ma’lum ijtimoiy-siyosiy tabaqaga mansub insonlarni sanashda universal o‘lchov-hisob birligi bo‘lgan Zamonaviy vyetnam tilining jonli so‘zlashuv stilistikasida insonlar sferasi uchun bu birlik batamom arxaiklashgan bo‘lib, hozirgi rasmiy iqtisodiy-statistik terminologiyada faqat chorvachilik hisob-kitobidagina funksional qoldiq sifatida saqlangan: *đầu gia súc* (qoramol boshi).

2. Ngọn (Daraxt uchi / shox-cho‘qqi): Qadimgi vyetnamliklarning kognitiv kosmogoniya modelida olov, chiroq, tog‘, minorasimon yoki vertikal yo‘nalishga ega bo‘lgan uzun, uchli shaklli obyektlarni kategorial tasniflagan. Bugungi kunda uning sintaktik valentligi o‘ta cheklangan bo‘lib, ko‘pincha she’riy diskursda yoki barqaror frazeologik birikmalardagina uchraydi: *ngọn đèn* (chiroq nuri/shulasi), *ngọn núi* (tog‘ cho‘qqisi).

3. Đấng và bậc (Muqaddaslik va iyerarxiya hisob so‘zi): Insonlarni kognitiv statusi, jamiyatdagi ijtimoiy mavqeyi va ilohiy munosabatiga ko‘ra diferensiallovchi qadimgi iyerarxik hisob so‘zdir.

- *Đấng*: Qadimgi animistik va keyingi liniyaviy diniy matnlarda faqat ilohiy, muqaddas substansiyalar va oliy shaxslar uchun qo'llanilgan: *Đấng tối cao* (Tangri/Alloh), *Đấng sáng tạo* (Yaratuvchi).

- *Bậc*: Yuqori intellektual salohiyatga va jamiyat tomonidan tan olingan yuksak axloqiy darajaga ega insonlar guruhi uchun xizmat qilgan: *bậc hiền triết* (donishmandlar). Zamonaviy vyetnam tilshunosligi darsliklarida bular real semantik guruhdan ko'ra ko'proq yuqori stilistik bo'yoqqa ega arxaik ekspressiv vosita sifatida baholanadi.

4. *Nóc* (Uy tomi): Qadimgi feodal Vyetnam jamiyatining soliq-ma'muriy tizimida va xalq orasida oilalar soni yoki xonadonlarni sanashda fundamental o'lchov-hisob birligi bo'lib xizmat qilgan (o'zbek an'anaviy tilshunosligidagi “tushun”, “bosh xonadon” konseptual muqobili). Hozirgi kunda jonli akademik diskursda sof arxaizm hisoblanadi, uning o'rnini sotsiologik muvozanat talabiga ko'ra *hộ* (xo'jalik) yoki *nhà* (uy) tizimli ravishda egallagan.

2. Tarixiy hisob so'zning tadqiq etilish tarixi

Vyetnam tilshunosligida hisob so'z evolyutsiyasini va ularning diaxronik transformatsiyasini o'rgangan olimlar ishini uchta asosiy fundamental davrga ajratish maqsadga muvofiqdir:

A) Mustamlakachilik va dastlabki grammatikalar davri (XX asr boshlari): Fransuz mustamlakachiligi davrida vyetnam tilini lotin alifbosi (*Chữ Quốc Ngữ*) asosida tizimlashtirish va g'arbliliklar uchun darsliklar yaratish jarayonida tadqiqotchilar arxaik elementlar muammosiga duch keldilar. L. Cadière o'zining “*Syntaxe de la langue vietnamienne*” (1958) asarida, xususan, 1-bobning “*Des substantifs de catégorie*” (Kategoriyali otlar) qismida “*cái*” va “*con*” kabi so'zlarni tahlil qiladi. Biroq, muallif bu so'zlarning kelib chiqishini aniqlashda animistik qarashlar yoki “jonli/jonsiz oppozitsiyasi” kabi nazariyalarni asosiy tushuntirish sifatida keltirmaydi. Muallif asarda asosan tilning amaliy sintaksisi, so'zlarning qo'llanilishi (usage) va pozitsiyasiga (position) urg'u beradi, tarixiy-etimologik nazariyalarni chuqur tahlil qilmaydi. Shunday bo'lsada, u “*cái*” haqida: - “*substantif de catégorie*” (kategoriyali ot) deb ataydi va u asosan jonsiz narsalar uchun ishlatilishini ta'kidlaydi (masalan, *cái bàn* - stol, *cái nhà* - uy). Biroq, u xalq tilida bu birlik ba'zida jonli narsalar yoki tabiat elementlari oldidan ham kelishi mumkinligini qayd etadi. Shuningdek, u “*cái*” so'zi qadimda “ona” ma'nosini anglatganini (*con cái* iborasida) va keyinchalik “asosiy” narsani ifodalash uchun ishlatila boshlaganini eslatib o'tadi.

“*Con*” haqida to'xtalib, uni asosan hayvonlar (to'rt oyoqlilar, qushlar, baliqlar, hasharotlar) uchun ishlatiladigan kategoriyali ot sifatida belgilaydi. Shuningdek, u ba'zi jonsiz narsalar (masalan, *con mắt* - ko'z, *con dao* - pichoq) oldidan kelishi mumkinligini, lekin bu holat ko'pincha harakatlanish yoki shakliy o'xshashlik bilan bog'liq ekanligini tushuntiradi. U “*con*”ning farzand (o'g'il/qiz) ma'nosida kelishi kategoriyali ot emas, balki oddiy ot ekanligini alohida ta'kidlaydi.

B) Milliy akademik maktab va strukturaviy tilshunoslik davri (XX asrning ikkinchi yarmi): Bu davrda mahalliy vyetnam olimlari til tarixi va grammatik strukturani tizimli tahlil qila boshladilar. Professor Nguyễn Tài Cẩn Nguyễn Tài Cẩn o'zining fundamental “*Ngữ pháp tiếng Việt: Tiếng - Từ ghép - Đoán ngữ*” asarida “*cái*” va “*con*” birliklarining til tizimidagi o'rnini chuqur va tizimli tahlil qilib, vyetnam tilshunosligida o'ziga xos lingvistik yondashuvni taqdim etgan. Muallif ushbu birliklarni shunchaki “hisob so'zlar” (classifiers) deb emas, balki “yordamchi otlar” (substantifs de catégorie) sifatida tasniflaydi.

Nguyễn Tài Cẩnning tadqiqoti quyidagi muhim xulosalarga asoslanadi:

– Mustaqil leksik birlikdan funksional birlikka o’tish: Tadqiqot qadimgi (proto) davrlarda “cái” (narsa/predmet) va “con” (bola/nasl) so’zlari dastlab mustaqil leksik ma’noli otlar sifatida faol qo’llanganini ko’rsatadi.

– Grammatikalashuv (grammaticalization) jarayoni: Til rivojlanishi davomida ushbu so’zlar o’zlarining dastlabki tor ma’nosini qisman yo’qotib, yuqori darajada abstraktlashgan va unifikatsiyalashuv jarayoni orqali universal o’lchov birliklariga aylangan.

– Chũ Nôm matnlarining tahlili: Muallif ushbu xulosalarga shunchaki nazariy taxminlar bilan emas, balki qadimgi *Chũ Nôm* yozma yodgorliklaridagi matnlar strukturasi va ularning qo’llanilish o’rnini sinchkovlik bilan o’rganish (kontekstual tahlil) orqali erishgan.

Nguyễn Tài Cẩn qarashlarining “lingvistik inqilob” hisoblanishiga asosiy sabab – u hisob so’zlar tizimini xorijiy (xitoy) ta’sir bilangina emas, balki vietnam tilining o’ziga xos ichki rivojlanish qonuniyatlari va dinamik jarayonlari bilan izohlaganidir. Ushbu nazariy yondashuv “cái” va “con” ni leksik-grammatik sinkretizm (o’tish davri birliklari) sifatida talqin qilish uchun mustahkam ilmiy zamin yaratadi va zamonaviy vietnam tilidagi hisob so’zlar tizimi ming yillik evolyutsiya mahsuli ekanligini tasdiqlaydi. Shuningdek, Parij maktabi vakili Nguyễn Phú Phong hisob so’zning sintaktik struktura ichidagi valentlik imkoniyatlari transformatsiyasini sinxron va diaxron aspektda ko’rsatdi.

C) Zamonaviy Kognitiv va tipologik tadqiqotlar davri (XXI asr): Bugungi kunda arxaik hisob so’z kognitiv lingvistika (“dunyoning lisoniy manzarasi”) va komparativistika doirasida o’rganilmoqda. Taniqli sinolog va tipolog olim Cao Xuân Hạo arxaik hisob so’zlarini tizimli o’rganish orqali vietnam etnosining qadimgi fazoviy, geometrik va mantiqiy tafakkur modelini restavratsiya qilish mumkinligini isbotladi. G’arb tadqiqotchilaridan M. Alves va H. Hundius esa avstroosiyo tillari (Mon, Khmer, Muong) kontekstida vietnam tili arxaik hisob so’zining genetik substratini qiyosiy-tarixiy metod orqali tasdiqlashgan.

Ushbu tadqiqot jarayonida ko’plab mualliflarning vietnam tili tarixiy hisob so’zining dinamik evolyutsiyasini tushuntiruvchi xulosalari natijasida shakllangan “Hisob so’zning konvergentsiya (zichlashish) qonuniyati” tushintirildi. Mazkur lingvistik qonuniyatga ko’ra, qadimgi vietnam tilida har bir obyekt yoki mikrotushunchalar guruhi uchun o’ta xoslangan, tor doiradagi, takrorlanmas o’nlab geomorfologik va sotsial-iyerarxik hisob so’z (*ngọn, bức, tấm, dải, cội, đóa, đấn, nóc...*) amal qilgan.

Biroq til tizimining global ichki tejamkorlik (*economy of language / law of minimal effort*) hamda integratsiya tamoyiliga ko’ra, asrlar davomida maxsus hisob so’zning aksariyati o’z funksiyalarini yuqori semantik valentlikka ega universal “cái” (jonsiz olam uchun) va “con” (jonli olam uchun) paradigmalari markaziga topshirgan va o’zlari til tizimining periferiyasiga (arxaik qatlamga) o’tgan.

Tadqiqot doirasida to’plangan materiallar tahlili shuni ko’rsatadiki, arxaik hisob so’z bugungi kunda ikki xil strukturaviy ko’rinishda reallashadi:

1. Arxaiklashgan barqaror grammatik qolip shaklida:

– *Một đấng quân vương* (Bir muqaddas podshoh) Mazkur sintaktik birikmada *đấng* birliqi referentning oddiy antropologik subyekt emas, balki qadimgi iyerarxiyaga daxldor oliy zot ekanini ko’rsatuvchi majburiy strukturaviy element (karkas) rovida kelmoqda.

2. Metaforik transformatsiyaga uchragan funksional ko’rinishda:

– *Một ngọn lửa* (Bir alov), *Một đóa hoa* (Bir gul). Ushbu birikmalardagi *ngọn* (uch/cho’qqi) va *đóa* (gullovchi tugun) kabi birliklari o’zining dastlabki qadimgi tub shakliy tasniflash tabiatini metafora asosida saqlab qolgan. Buni o’zbek tilshunosligidagi konseptual



muqobillar – ixtisoslashgan va qisman leksik ma’nosini saqlagan *“bir tup daraxt”, “bir bosh uzum”, “bir tana qo’y”* kabi hisob soʻzlari tizimining evolyutsion bosqichlari bilan tipologik jihatdan tenglashtirish mumkin.

Vyetnam tili hisob soʻzlari nazariyasi, xususan, arxaik hisob soʻzning lisoniy tabiati va ularning hozirgi kundagi holatini oʻrganish quyidagi ilmiy xulosalarni chiqarish imkonini beradi:

1. Vyetnam tili hisob soʻzlari tizimi shunchaki leksik miqdor koʻrsatkichlari yigʻindisi emas, balki tilning izolyatsiyalovchi (analitik) tabiatini sintaktik va morfologik muvozanatda ushlab turuvchi, kognitiv semantika hamda grammatika kesishmasida shakllangan universal iyerarxik mikrotizimdir.

2. Arxaik hisob soʻz oʻz taraqqiyoti davomida funksional konvergensiya qonuniyatiga boʻysungan holda, tor spetsifikatsiyadan universalizatsiyaga qarab evolyutsiyaga uchragan.

3. Mazkur tarixiy qatlamlarni oʻzbek tili analoglari bilan qiyosiy-tipologik tahlil qilish, har ikki xalqning dunyoni lisoniy modellashtirishdagi milliy-kognitiv oʻziga xosliklarini chuqur anglashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati

1. Cadière L. Syntaxe de la langue vietnamienne. – Paris: Publications de l’École Française d’Extrême-Orient, 1958. – 204–210 p.

2. Cao Xuân Hạo. Sơ thảo ngữ pháp chức năng tiếng Việt (Vyetnam tili funksional grammatikasi ocherklari). Tập 1. – Hà Nội: Nhà xuất bản Giáo dục, 1991. – 310–315 p.

3. Cao Xuân Hạo. Tiếng Việt: Mấy vấn đề ngữ pháp và ngữ nghĩa (Vyetnam tili: Grammatika va semantikaning ba’zi masalalari). – Thành phố Hồ Chí Minh: Nhà xuất bản Trẻ, 2003. – 89–92 p.

4. Đỗ Hữu Châu. Từ vựng ngữ nghĩa tiếng Việt (Vyetnam tili leksik semantikasi). – Hà Nội: Nhà xuất bản Giáo dục, 2001. – 45–48 p.

5. Nguyễn Hồng Cẩn. Cơ cấu loại từ trong tiếng Việt lịch sử (Vyetnam tili tarixida hisob soʻz strukturasi). – Hà Nội: Nhà xuất bản Đại học Quốc gia, 2012. – 112–115 p.

6. Nguyễn Phú Phong. Le syntagme nominal en vietnamien (Vyetnam tilida nominal birikmalar). – Paris: L’Harmattan, 1992. – 77–81 p.

7. Nguyễn Tài Cẩn. Ngữ pháp tiếng Việt: Tiếng - Từ ghép - Đoản ngữ (Vyetnam tili grammatikasi: Boʻgʻin - Qoʻshma soʻz - Birikma). – Hà Nội: Nhà xuất bản Đại học Quốc gia Hà Nội, 1975 (Tái bản 2004). – 142–149 p.

8. Nguyễn Tài Cẩn. Nguồn gốc và quá trình hình thành cách đọc Hán Việt. – Hà Nội: NXB Khoa học Xã hội, 1979.

9. Alves M. A Grammatical Sketch of Muong Loo // Mon-Khmer Studies Journal. – 2000. – Vol. 30. – P. 55–63.